

Date: 11th December-2025

KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDAGI TO'SIQLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Abdisamadov Usmonjon Elmurod o'gli

Doniyorov Alibek Abdumurod o'g'li

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti

Iqtisodiyot yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu tezisda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishida uchraydigan asosiy to'siqlar, ularning iqtisodiy va tashkiliy sabablari hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, moliyaviy mexanizmlar hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik, investitsiya, kredit, infratuzilma, soliq tizimi, bozor, innovatsiya, davlat qo'llab-quvvatlovi.

Abstract: This thesis analyzes the main obstacles faced in the development of small business and entrepreneurship, their economic and administrative causes, and possible solutions. The study also reviews government support mechanisms, financial tools, and modern managerial approaches aimed at improving small business competitiveness.

Key words: Small business, entrepreneurship, investment, credit, infrastructure, taxation, market, innovation, government support.

Аннотация: Вданной тезисной работе анализируются основные препятствия на пути развития малого бизнеса и предпринимательства, их экономические и административные причины, а также возможные пути решения. Кроме того, рассматриваются механизмы государственной поддержки и современные методы управления.

Ключевые слова: Малый бизнес, предпринимательство, инвестиции, кредит, инфраструктура, налоги, рынок, инновации, государственная поддержка.

Kirish.

Barchamizga ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishiga bog'liq. Kichik biznes aholining bandligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish hamda mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kichik biznesning samarali faoliyat yuritishi ko'plab to'siqlarga duch keladi. Moliyaviy, huquqiy, tashkiliy va infratuzilma bilan bog'liq muammolar tadbirkorlikni rivojlantirishni cheklaydi, innovatsion g'oyalarni tatbiq etishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun kichik biznesning rivojlanishidagi to'siqlarni aniqlash va ularni samarali bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunda iqtisodiy siyosatning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bilan, birgalikda bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev biznes va tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha doimiy e'tiborida ekanligini alohida ta'kidlashimiz zarur, misol uchun 2024-yil yakunlari va 2025-yildagi asosiy rejalar yuzasidan o'tkazilgan



Date: 11th December-2025

videoselektor yig'ilishida "Keng ko'lamli islohotlarimizning ilk kunlaridan boshlab men bir fikrni doim ta'kidlab kelaman: tadbirkorlikni rivojlantirish - biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo'g'ingacha - barcha rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi shart" [2] deb o'z nutqining avvalida ta'kidlaganini keltirishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyodagi iqtisodiyot va tadbirkorlik sohalaridagi yetakchi olimlar, jumladan, P. Drucker, M. Porter, J. Schumpeter kabi mutaxassislar uzoq vaqtdan buyon kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish masalalarini o'rganib kelmoqdalar. Ularning ilmiy-tadqiqot ishlariga ko'ra, kichik biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat moliyaviy resurslar, balki inson resurslari, tashkiliy va huquqiy mexanizmlardan samarali foydalanishga bog'liq. Shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi mikro va makro darajada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

SHuningdek mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlik sohasida O'zbek olimlari R. Qosimjonov, X.P.Abulqosimov, Sh. Hasanov, B.R. Sanakulova, M.R. Boltaboev, M.S.Qosimova, Sh.J. Ergashxodjaeva, B.K. G'oyibnazarov, A.N. Samadov, R. Xodjaev, A.Mutalov, D.Mytalova, B.Yu.Xodiev, H.O. Rahmonov, Z.Ya.Xudoyberdiev, A.N. Samadov, G.N. Ostanaqulova, Z. Sa'dullayev va boshqalar shular jumlasidandir va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadbirkorlik resurslaridan foydalanish, iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalarni joriy etish, tarmoqni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari o'rganilgan.

Olimlar ta'kidlaydiki, kichik biznes sub'ektlari uchun sog'lom raqobat muhitini yaratish, barcha tadbirkorlarga teng sharoitlar taqdim etish ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi bo'yicha qaydetilgan ko'rsatkichlar aksariyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi. Jumladan, ushbu ko'rsatkich Italiyada 60,0 foizni, Yaponiyada 55,0 foizni, Germaniyada 54,0 foizni, Buyuk Britaniyada 53,0 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlari guruhidan Qozog'istonda 25,6 foiz, Rossiya Federatsiyasida esa 20,0 foizga teng. Bunda turli mamlakatlarda kichik biznes sohasiga tegishli o'rnatilgan me'yorlar turlichaekanligini ham inobatga olish lozim. Masalan, AQShda savdo sohasida hodimlar soni 100 kishigacha bo'lgan iqtisodiy sub'ektlar kichik biznes vakillari hisoblanadi, jumladan, ishlab chiqarish va neftni qayta ishlab sanoatida bo'lsa hodimlarining soni 1 500 tagacha, elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida esa hodimlar soni 1 000 tagacha bo'lgan iqtisodiy sub'ektlar kichik biznes vakillari hisoblanadi.

IHTT mamlakatlari uslubi bo'yicha kichik biznes vakillari hodimlari soni 20 tagachabo'lgan ish beruvchilari o'ta kichik turdagi kichik biznes vakillar hisoblansa, kichik biznes vakillari uchun ushbu me'yor 90 tagacha bo'lgan ish o'rni deb belgilangan. Ushbu mamlakatlar guruhida ish o'rinlari soni bo'yicha 100-499 ta oraliqda joylashgan ish



Date: 11th December-2025

beruvchilar o'rtta biznes vakillari hisoblansa, 500 va undan ortiq ish o'rniga ega bo'lgan ish beruvchilar katta biznes sub'ektlari qatoriga kiradi. BMTning Iqtisodiy komissiyasi tomonidan Lotin Amerikasi qit'asida joylashgan mamlakatlarda kichik biznes vakillari uchun, ularning faoliyat turlari va yo'nalishidan qat'iy nazar ish o'rinlari soni bo'yicha me'yor 5-50 ta ekanligi aniqlangan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa holat biroz o'zgacha ko'rinishga ega. Mintaqadaishchilari soni 1-9 tagacha bo'lgan, korxonaning yillik aylanmasi va balansi 2 mln. Yevrogacha bo'lgan iqtisodiy sub'ektlar mikro biznes vakillari hisoblansa, ish o'rni 10-49 tagacha bo'lgan. Yillik kapital aylanmasi va balansi hajmi 10 mln. yevrogacha bo'lgan ish beruvchilar kichik biznes sub'ekti hisoblanadi.

1-rasm. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari soni bir yilda 23,7 mingga kamaydi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni bir yilda 23 753 taga kamaydi. Bu haqda Statistika agentligi e'lon qilgan press-relizda ma'lumot berilgan.

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 390 898 tani tashkil etdi. Hududlar kesimida ularning soni quyidagicha:

Toshkent shahrida — 86 504 ta;

Toshkent viloyatida — 35 242 ta;

Samarqand viloyatida — 34 553 ta;

Farg'ona viloyatida — 31 824 ta;

Buxoro viloyatida — 25 899 ta;

Qashqadaryo viloyatida — 24 595 ta;

Andijon viloyatida — 23 169 ta;

Xorazm viloyatida — 23 117 ta;

Namangan viloyatida — 22 037 ta;

Qoraqalpog'iston Respublikasida — 20 371 ta;

Surxondaryo viloyatida — 19 461 ta;

Navoiy viloyatida — 18 509 ta;



Date: 11th December-2025


Jizzax viloyatida — 15 640 ta;

Sirdaryo viloyatida — 9 977 ta.

Qayd etilishicha, 2023-yilning 1-iyulida mamlakatdagi tadbirkorlik subyektlari soni 414 651 tani, 2022-yilning mos davrida esa 497 293 tani tashkil etgan. O'tgan yili ular soni 82 642 taga kamaygan bo'lsa, joriy yilda 23 753 taga qisqardi.

Hozirda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 387,1 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar hisoblanadi. Shundan 148 714 tasi (38 foiz) savdo, 62 153 tasi (15,9 foiz) sanoat, 32 547 tasi (8,3 foiz) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 29 770 tasi (7,6 foiz) qurilish, 27 673 tasi (7,1 foiz) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar yo'nalishidagi korxonalar tashkil etadi.

2-rasm.: Statistika agentligi.



Agentlik tahliliga ko'ra, O'zbekistondagi har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi. Ularning 148 mingtasi (99,5 foizi) kichik biznes subyektlaridir.

Hududlar bo'yicha eng ko'p kichik biznes subyektlari Toshkent shahri (21,9 foiz), Toshkent (9 foiz), Samarqand (8,9 foiz), Farg'ona (8,2 foiz) va Buxoro (6,6 foiz) viloyatlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish va tadbirkorlik sub'ektlarini barqaror faoliyat bilan ta'minlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud faoliyat samaradorligi yetarli emasligi, ushbu yo'nalishni yanada jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Kichik biznesning rivojlanishidagi asosiy muammolar moliyaviy, huquqiy, tashkiliy va infratuzilma bilan bog'liq to'siqlar orqali namoyon bo'ladi. Moliyaviy to'siqlar bank kreditlarining qimmatligi, garov talablarining yuqoriligi, shuningdek, investitsiya resurslarining yetarli emasligi bilan ifodalanadi. Huquqiy va ma'muriy to'siqlar esa ortiqcha ruxsatnomalar, murakkab soliq hisobotlari va ro'yxatdan o'tish jarayonlarining uzoqligi orqali tadbirkorlik faoliyatini sekinlashtiradi.

Infratuzilma bilan bog'liq muammolar, xususan, transport-logistika xizmatlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, texnologik bazaning eskirganligi va raqamli kommunikatsiya tizimlarining sustligi, kichik biznesning samarali faoliyat yuritishini cheklaydi. Shu bilan



Date: 11th December-2025

birga, malakali kadrlar yetishmasligi va ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilishlar innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni murakkablashtiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi, imtiyozli kreditlar, soddalashtirilgan soliq rejimlari va investitsiya mexanizmlari zarur. Shuningdek, kichik biznes sub'ektlarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, servis xizmatlarini rivojlantirish va ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish tadbirkorlikning barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni rivojlantirishning samarali tizimi faqat moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmay, balki infratuzilma, texnologiya va kadrlar resurslaridan samarali foydalanish bilan ham bog'liqdir. Shu yo'l bilan tadbirkorlikning barqaror o'sishi, aholining bandligi va iqtisodiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 24.05.2024 yildagi PQ-193-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6937347>
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2024-yil yakunlari va 2025 yilga asosiy rejalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi hamda yetakchi tadbirkorlar bilan muloqot materiallaridan. <https://president.uz/uz/lists/view/7778>
3. D.S.Qosimova. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. (Darslik). -T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 328 bet.
4. Mutalov A., Mulalov. D. M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot. 2012. - 84 b.
5. Пансков, В. Г. (2018). Налоговый льготы: сущность и опр еделение. ЭТАП: экономическая теория, анализ, практика, (4), 32-48.
6. Финансовые и денежно-кредитные методы регулирования экономики. Теория и практика : учебник для магистратуры / под ред. М. А. Абрамовой, Л. И. Гончаренко, Е. В. Маркиной. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 486 с.
7. Еременко, Е. А. (2015). Специальные налоговые режимы и концепция справедливости налогообложения. Финансы, (9), 76-80.
8. Mexmonaliyev, U. E. (2024). Ichki nazoratini takomillashtirishning usullari. Экономика и социум, (8 (123)), 135-138.
9. Qudbiyev N. T. va b. Tadbirkorlik subyektlarida ichki nazoratning samarali tizimi sifatida ichki auditning o'rni va ahamiyati //Scientific progress. - 2022. - T. 3. - №. 1. - С. 449-457.
10. Qudbiyev, N. T. (2023). Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari: korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari.